

SPECIFIC ASPECTS OF THE ALIMONY AGREEMENT

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Huquq ta’limi kafedrası

katta o‘qituvchisi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 890 5309328

Abstract

A number of opinions have been formed regarding the content of the alimony agreement. S. Yu. Chashkova in her research notes the well-founded opinion that the content of the alimony agreement is the establishment of a property obligation by one of the family members to pay alimony to another family member (who has the right to alimony).

Introduction

ALIMENT TO‘LASH TO‘G‘RISIDAGI BITIMNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Huquq ta’limi kafedrası

katta o‘qituvchisi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 890 5309328

Ta‘minot undirish bo‘yicha kelishuvning mazmuni xususida bir qator fikr-muloxazalar shakllangan. S.Yu.Chashkova o‘zining tadqiqotlarida aliment bo‘yicha kelishuvning mazmuni oila a‘zolaridan biri boshqa oila a‘zosiga (aliment olish huquqiga ega) aliment to‘lash bo‘yicha mulkiy majburiyatni belgilashdan iborat ekanligi haqida asoslangan fikrlarni qayd etadi¹.

¹ Чашкова С. Ю. Конкуренция семейно-правовых договоров и медиативных соглашений, направленных на регулирование семейно-правовых споров // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 4. — б. 57. —DOI: 1017803/1729-5920.2022.185.4.050-062.

Shuningdek, K.V.Melnik aliment to'lash to'g'risidagi shartnomada majburiy ravishda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi kerak² ekanligini qayd etadi: majburiyat yuklangan shaxslar to'g'risida - aliment to'lash va aliment oluvchilar; alimentni to'lash usullari va tartibi, vaqti-vaqti bilan (yoki bir vaqtning o'zida) to'lanadigan qat'iy pul summasida; mulkni berish orqali; aliment miqdori (voyaga etmagan bolalar uchun u sud qarori bilan undiriladigan aliment miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas); aliment miqdorini indeksatsiya qilish tartibi (agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, unda bunday indeksatsiya yashash minimumining o'sishiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi).

Yuqoridagi fikrlar haqiqatdan ta'minot undirish bo'yicha tuziladigan kelishuvning mazmunini yoritib bergan bo'lsada, biroq nazarimizda oila qonunchiligida aynan ota-onani ta'minlash borasida bo'shliqlar mavjudligi yaqqol ko'zga tashlangandek. Quyida ularni tahlil qilamiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 23 bandida aliment undirish haqidagi ish bo'yicha taraflar kelishuv bitimi tuzishi munosabati bilan ish yuritish tugatilishiga, agar bu bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa, yo'l qo'yilishi belgilangan. Biroq Plenum qarorida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onasiga ta'minot berish bo'yicha tuziladigan kelishuv haqida bironta jumla aks ettirilmagan.

Qolaversa, kelishuv bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa kelishuv bitimini tuzilganligini sud inobatga olishi aniq normalashtirilgan. Biroq agar, "bola" degan jumlaning o'rnida "ota-ona" degan jumla bo'lgan taqdirda, bunday vaziyatda ota-onaga ta'minot to'lash bo'yicha kelishuvda aynan qaysi holatlar zid bo'lishi mumkinligi mavhumligicha qolib ketgan.

Umuman olganda, bugungi kunda aliment to'lash to'g'risidagi bitimning qaysi shartlari muhim ekanligi haqida aniq tushuntirishlar mavjud emas. Shuningdek, aynan qaysi qoidalarining belgilanganligi natijasida bitim tuzilmagan deb hisoblanishi ham normalashtirilmagan. Masalan, Oila kodeksining 31-moddasi

² Melnik K.V. Соглашение об уплате алиментов, как важнейший способ обеспечения алиментных обязательств// file:///C:/Users/Hp/Downloads/soglashenie-ob-uplate-alimentov-kak-vazhneyshiy-sposob-obespecheniya-alimentnyh-obyazatelstv.pdf/ b 72

bashinchi qismida nikoh shartnomasida qanday shartlar nazarda tutilmasligi qat'iy belgilangan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 113-128 moddalarida qanday mazmundagi bitimlar haqiqiy hisoblanmasligi fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari uchun aniq belgilangan.

Biroq har qanday holatda ham ota-onalarga ta'minot to'lash majburiyatidan kelib chiqib tuzilgan bitimlarning haqiqiy emasligi faqat sud tomonidan hal qilinadi. Bunday holatda birinchi navbatda qonunlar emas, balki sudyaning ichki ishonchi muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, Oila kodeksining 130 moddasida aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning sub'yektlari yoritilgan bo'lib, unga ko'ra aliment to'lash bo'yicha kelishuv aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi. Biroq, aliment to'lovchi muomalaga layoqatsiz yoki to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan taqdirda, bunday holatda kelishuvga erishish mumkinligi haqida aniq norma belgilanmagan. Ayni holatda mazkur normani takomillashtirish nazarimizda kelgusida bu sohadagi nizolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Xususan, Oila kodeksining 130-moddasini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif etamiz:

“Aliment to'lash to'g'risidagi bitim (midori, shartlari va aliment to'lash tartibi) aliment to'lashga majbur bo'lgan shaxs bilan uni oluvchi o'rtasida, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs **va (yoki) aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda** esa, ushbu shaxslarning qonuniy vakillari o'rtasida tuziladi.

Qisman muomalaga layoqatsiz va (yoki) muomala layoqati cheklangan shaxslar qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to'lash to'g'risida bitim tuzadilar.”

Xorij tajribasi orqali fikrimizni to'laqonli isbotlashga uringan holda tahlil qilsak, Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining 99-moddasida Aliment to'lash to'g'risidagi bitim aliment to'lashga majbur bo'lgan shaxs va (yoki) aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda — ushbu shaxslarning qonuniy vakillari o'rtasida tuzilishi, to'liq muomalaga layoqatli bo'lmagan shaxslar qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to'lash to'g'risida bitim tuza olishi qat'iy belgilangan.

Mazkur tarib, Qozog'izston Respublikasining “Nikoh va oila” to'g'risidagi kodesining 157-moddasida, Qirg'iziston Respublikasining Oila kodesining 104-

moddasida, Tojikiston Respublikasi Oila kodeksining 100-moddasida aynan belgilab ketilgan.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodesining 133-moddasida aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentlar miqdori belgilangan bo'lib, unga ko'ra, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentlarning miqdorini taraflar shu kelishuvda belgilaydilar. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Ushbu normada ham faqatgina voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment miqdori haqida so'z borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq nazarimizda, ota-onani ta'minlash borasidagi qonuniy mexanizm to'laqonli ishlab chiqilmagandek. Shu sababli muallif tomonidan Oila kodesining 133-moddasini takomillashtirishga zarurat mavjud degan xulosaga kelindi, ya'ni ushbu moddaning ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etilishi ota-onalarning ham huquqlari inobatga olinishini ta'minlaydi:

“Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi, **ota-onaga beriladigan ta'minot miqdori esa mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi** kerak”.

Shuni ta'kidlash lozimki, aliment kelishuvlari amaliyotda nisbatan kam tuzilmoqda. 2021 yilda O'zbekiston bo'yicha jami 77 ta shunday kelishuv rasmiylashtirilgan bo'lib, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida umuman tuzilmagan, Xorazm va Samarqand viloyatlarida esa atiga 1 ta aliment kelishuvi tuzilgan. Aliment majburiyatlari sub'ektlarining kelishuv tuzishlariga nima monelik qilishini aniq sababini bilish qiyin. Buning sababi, er va xotin aliment to'lash to'g'risidagi shartnomadan ko'ra ko'proq nikoh shartnomasini tanlashi imkoniyatini, fuqarolarning huquqiy savodsizligini va qonun hujjatlarida bunday imkoniyat mavjudligini bilmasliklarini, taraflarning kelishuvi, shartnomaning yuridik kuchidan ko'ra qonunda ko'rsatilgan imkoniyatlarga ko'proq ishonch bildirish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Oxirgi 2 yilda tendentsiya biroz

o'zgarganligini raqamlardan kuzatish mumkin, xususan, 2023 yilda 217 va 2024 yilda 210 ta aliment kelishuvlari tuzilgan³.

Aytish joizki, Oila kodeksi doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotgan shaxslar uchun ham aliment to'lash bo'yicha kelishuv bitimini tuzush huquqini beradi. Kodeksning 145-moddasiga muvofiq, Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o'zi ta'minot berishi lozim bo'lgan aliment oluvchilar bilan ushbu Oila kodeksning 130—134-moddalariga asosan aliment to'lash to'g'risida kelishuv bitimi tuzishi shart.

Aliment to'lash to'g'risida kelishuvga erishilmagan taqdirda manfaatdor shaxs aliment miqdorining pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi va alimentni bir yo'la to'lash to'g'risida yoki aliment evaziga muayyan mol-mulkni berish yoxud alimentni boshqa usulda to'lash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Aliment to'lash to'g'risidagi bitimning huquqiy mohiyatini muhokama qilishni davom ettirib, dissertatsiya muallifi ushbu shartnoma mazmunining ayrim xususiyatlarini qayd etadi.

Muallifning fikricha, tegishli oila a'zolariga aliment to'lash to'g'risida bitim tuzish va uning mazmunini belgilash erkinligini berish orqali qonun chiqaruvchi ushbu kelishuvning bajarilishini ta'minlaydigan bir qator davlat-huquqiy kafolatlarni nazarda tutadi.

Qolaversa, aliment to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish masalasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan bitimlarni o'zgartirishdan keskin farq qilib, uni o'zgartirish va bekor qilish erkin hamda dispazitiv xarakterga ega. Chunki aliment to'lash to'g'risidagi bitimda ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirish taraflardan birining moddiy imkoniyatiga bo'g'liq bo'lib, kelgusida ushbu moddiy imkoniyat yoqolgan yoki kamaygan taqdirda, sud tomonidan bitim o'zgartirilishi imkoniyat yaratiladi hamda bitimda nazarda tutilgan shartlar o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi.

³ Saydivaliyeva X.X. Oilaviy munosabatlarni shrtnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. y.f.d.ilmiiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. T. 2025. B 136.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy rehabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.